






YALPI HUDUDIY MAHSULOT




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-sentabrida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 14 126,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 1,0 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar-sentabrdagi narxlarga nisbatan 107,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'shgan hissasi 3,5 % ga yetdi.



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2019- yil	2020- yil	
	I. YaHM	12 980,2	14 126,4	101,0
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	11 664,9	13 206,8	101,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1 315,3	919,6	100,8
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	11 664,9	13 206,8	101,1
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3 028,2	3 563,0	101,7
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 534,0	4 999,0	102,2
	sanoat	3 409,3	3 701,3	102,5
	qurilish	1 124,7	1 297,7	101,3
	Xizmatlar	4 102,7	4 644,8	99,3

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2019- yil	2020- yil	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	648,0	715,5	98,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	765,5	841,5	104,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 689,2	3 087,8	98,1

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 7 406,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 % ga kamaygan.



Yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari











Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 93,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 6,5 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 1,0 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 27,0 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog'ining ulushi 28,0 % dan iborat bo'lib, 1,2 % ga kamaydi, qurilishniki esa 0,2 % punktga ko'paydi va 9,8 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 35,2 % ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda uzgarishsiz qolgan.




Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2019- yil	2020- yil
	I. YaIM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	89,9	93,5
	Mahsulotlarga sof soliqlar	10,1	6,5
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	26,0	27,0
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	38,8	37,8
	sanoat	29,2	28,0
	qurilish	9,6	9,8
	Xizmatlar	35,2	35,2
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,6	5,4


		2019- yil	2020- yil
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,6	6,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	23,0	23,4




Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



YaHMning o`shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liqdir. O`shish sur`atlari qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 101,7 % (YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi – 27,0 %), sanoatda – 102,5 % (28,0 %), qurilishda – 101,3 % ni (9,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasida esa o`tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 99,3% (35,2%) kamayish kuzatildi. Xizmatlar sohasi tarkibida savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarda 98,0 % (5,4 %) kamayish, tashish va saqlash, axborot va aloqa 104,9 % (6,4 %) ko`paydi, boshqa xizmat tarmoqlarida 98,1 % (23,4 %) kamayish kuzatildi.




Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha mutlaq o`shish sur`atlari
(o`tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiyotning qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va sanoat tarmoqlari YaHMning mos ravishda 0,4 f.p. va 0,6 f.p. ga o`shishiga hissa qo`shdi, qurilish tarmog`i 0,1 f.p. Xizmatlar sohasida 0,2 f.p. salbiy hissa qo`shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning ko`payishi hisobiga YaHM 0,1 f.p. ga oshgan.



2020- yil yanvar-sentabr oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissi



2020- yil yanvar-sentabrda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil yanvar-sentabrdagi narxlarga nisbatan 107,7 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 115,7 %, qurilishda - 114,0 % va xizmatlarda - 113,9 % qayd etildi.



Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

